

KO'Z KASALLIKLARI VA ULARNING PEDAGOGIK TASNIFI

Fayzullayeva Sitora Toshpo'lat qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika:logopediya yo'nalishi talabasi

Telefon:+998915667254

Annotatsiya: ushbu maqolada tiflopedagogika, ko'z kasalliklari, ularning turlari kelib chiqish sabablari, qisman ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar va ularning pedagogik tasnifi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: defektologiya, tiflopedagogika, ko'rlik, tug'ma ko'rlik, orttirilgan ko'rlik, ko'ruv organlarinig shikastlanishi, markaziy nerv sistemasining shikastlanishi, to'r parda, shox parda, glaukoma, astigmatizm, kriptoftalm, logoftalm, traxoma, katarakta, afakiya, miopiya va gipermitropiya.

Аннотация: в данной статье рассказывается о тифлопедагогике, глазных болезнях, причинах их видов, частично слабовидящих детях и их педагогической классификации.

Ключевые слова: дефектология, тифлопедагогика, слепота, врожденная слепота, приобретенная слепота, поражение органов зрения, поражение ЦНС, сетчатки, роговицы, глаукома, астигматизм, криптофтальм, логоофтальм, трахома, катаракта, афакия, миопия и гиперметропия.

Annotation: this article describes typhlo-pedagogy, eye diseases, the causes of their types, partially visually impaired children and their pedagogical classification.

Key words: defectology, typhlo-pedagogy, blindness, congenital blindness, acquired blindness, damage to the organs of vision, damage to the central nervous system, retina, cornea, glaucoma, astigmatism, cryptophthalmus, logophthalmos, trachoma, cataracts, aphakia, myopia and hypermetropia.

Respublikamizda jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoyalash, o'qitish va tarbiya berish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilganki, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni (23 - modda) va davlat tomonidan 1992-yil ratifikatsiya qilingan BMT ning «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyasi (23 - modda) da nogiron bolalarning alohida parvarishlash, ta'limdan foydalanish, munosib turmush kechirish huquqlariga egaliga e'tirof etilgan. Shuningdek, ko'rishida muammosi bo'lgan bolalarni o'qitish jarayonini turli zamonaviy talablar bilan uyg'unlashgan texnologiyalar asosida tashkil etish bugungi kunda maxsus pedagogikaning dolzarb masalalaridan hisoblanmoqda. «Sog'liq va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun munosib muhit yaratiladi» deyiladi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da. Nogironlikni oldini olish maqsadlarining ijobiy hal qilinishi nogironlarning ijtimoiy tiklash bo'yicha Davlat dasturini ishlab chiqish va hayotga tatbiq qilish bilan uzviy bog'liqdir. Bu muammoni defektologiya fanining tarixi bo'lmish tiflopedagogika ochib beradi.

Tiflopedagogika ko'rish jarayoni chuqur buzilgan shaxslarni tarbiyalash va o'qitish muammolarini ishlab chiqaruvchi defektologiyaning bo'limi hisoblanadi. U umumiy

pedagogikaning qismi va defektologiyaning bo'limlaridan biri hisoblanadi. Umumiy pedagogikaning bo'limi sifatida dialektik falsafa, insonparvar tamoyillari asosida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar va kattalar rivojlanishining o'ziga xosligini hisobga olgan holda rivojlanadi. Tiflopedagogikaning tabiiy ilmiy asosi I.M. Sechenov va I.P. Pavlovning oliy nerv faoliyati to'g'risidagi ta'limoti sanaladi[1].

KO'Z KASALLIKLARI VA ULARNING TAVSIFI

Ko'rish jarayonining buzilishi tug'ma va keyinchalik paydo bo'lishi mumkin. Tug'ma ko'rlik homilaning ona qornidagi vaqtida bo'lgan kasalliklar va shikastlanishi oqibatida paydo bo'lishi mumkin. Ba'zi bir ko'ruv nuqsonlari nasldan- naslga irsiy o'tishi natijasida bo'lishi mumkin. Odatda keyinchilik paydo bo'lgan ko'rlik ko'ruv organlarining kasallanishi oqibatida - to'r parda, shox parda markaziy nerv sistemasining kasalliklari (meningit, miyadagi shish, meningoensefalit) organizmning umumiy kasallanishi oqibatida (qizamiq, gripp) miyaning travmatik shikastlanishi oqibatida paydo bo'lishi mumkin. Ko'ruv analizatorining buzilishlari rivojlanuvchi va turg'un turlari mavjud. Rivojlanadigan ko'ruv nuqsonida patologik jarayonlarning ta'sirida ko'ruv jarayonining doimiy ravishda yomonlashuvi ro'y beradi. Masalan, glaukomada ko'zning ichki bosimi ko'tarilib ketadi va ko'z to'qimalarida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ko'rlar va zaif ko'ruvchilar tovushlar orqali narsalarni va ularni o'rab turgan muhitning fazoviy xususiyatlarini erkin holda ifodalaydilar. Ular tovush orqali manbaani va uning joylashishini ko'zi ko'radiganlardan aniqroq aniqlaydilar. Ko'ruv protsessii buzilgan shaxslarda fazoviy eshituv juda yuqori darajada rivojlanganligi har xil tovushlar maydonida oriyentirovka olish shartligi sababli yuzaga keladi. Ko'rlar va zaif ko'ruvchilarda ularni o'rab turgan dunyoni idrok etish va bilishda teri orqali bilish muhim ahamiyatga ega. Taktil idrok etish har xil kompleks sezgilar (qo'l tekizish, bosim, issiqlik, sovuqlik, og'riq, materialning fakturasi va boshqalar) orqali ta'minlanadi va bular orqali narsalarning shakllari, o'lchamlari va har xil proporsional aloqalar aniqlanadi. Teri va shilimshiq qavatdagi nerv qoldig'larini tomonidan qabul qilingan har xil sezgilar bosh miya qobig'ining qo'l va barmoqlar ishi bilan bog'liq bo'limiga yuboriladi. Ko'rlar va ko'zi ojizlar xudi shunday qo'llari va barmoqlari bilan "ko'rishga" o'rganadilar va shu darzda tashqi olam bilan munosabatga kirishadilar.

Shunday qilib, ko'rishda nuqsoni bor bolalarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Ko'rlar;

2. Zaif ko'ruvchilar.

Ko'rlar ko'ruv o'tkirligiga ko'ra ikki turga bo'linadi;

1. Total ko'rlar (0 ko'rish o'tkirligi);

2. Qisman ko'rlar. (Ko'rish o'tkirligi 0,05 gacha);

Kelib chiqish sababiga ko'ra:

1. Tug'ma ko'rlar;

2. Orttirilgan ko'rlar;

Zaif ko'ruvchilar ko'rish o'tkirligiga ko'ra quyidagicha turga bo'linadi.

1. 0,05dan 0,1 gacha;

2. 0,1dan 0,2 gacha;

3. 0,2 dan yuqori 0,4 va 0,9gacha[2]

• Ko'z kasalliklarining turlari:

Kriptoftalm – qovoq differensirovkasining to'liq yo'qotilishi.

Qovoq kolobomasi – qovoqning to'liq qatlamlilik sementar nuqsoni

Gunn sindromi – yuqori qovoqning beixtiyor ko'tarilishi.

Qovoq shishi – qovoq to'qimalarida anomal miqdorda suyuqlik to'planishi.

Lagoftalm – ko'z yorig'ining to'liq yopilmasligi.

Kon'yunktivit – kon'yunktivaning yallig'lanishi.

Traxoma – xlamidial kon'yunktivitning turi.

Katarakta – ko'z gavharining xiralashishi;

Afakiya – ko'z gavharining yo'qligi.

Miopiya – tasvir ko'z to'r pardasida emas, balki uning oldida shakllanishi, bemor yaqinni yaxshi ko'rib, uzoqni yaxshi ko'ra olmaydi.

Gipermetropiya – tasvir ko'z to'r pardasida emas, balki uning ortida shakllanishi bilan tavsiflanadigan kasallik. Bunday bemor ham uzoqni, ham yaqinni yaxshi ko'ra olmaydi.

Astigmatizm – ko'z olmasi, gavhari yoki shox pardasi shakli o'zgarishi tufayli ko'rishning buzilishi.

Anizometropiya – chap va o'ng ko'z refraksiyalarining bir-biridan sezilarli darajada farq qilishi va hokazo kasalliklar[3].

Ko'z kasalliklaridan biri ya'ni hozirgi kunda juda ko'p uchraydigan Astigmatizm kasalligi bilan tanishamiz. Astigmatizm (yunoncha a – inkor qo'shimchasi va stigme – nuqta) – yorug'lik nuqtaviy manbaining tasviri bitta tekislikda yotmaydigan ikkita o'zaro tik kesmada kuzatiladigan optik tizim aberratsiyasi. Agar nuqtaviy manbadan tarqaluvchi nurlar dastasi optik tizimdan o'tishda deformatsiyalanib, bir nuqtada kesishmay, turli nuqtalarda kesishsa, bunday nurlar dastasiga astigmatik dasta, hodisaning o'zi astigmatizm deyiladi. Astigmatizm, masalan, silindrik linzalarda va nurlar dastasi optik o'qqa katta burchak ostida tushuvchi sferik linzalarda kuzatiladi. Keyingi holda buyunning optik o'qdan uzoqdagi nuqtalari tasvirini aniq kuzatib bo'lmaydi. Ko'z jarohati oqibatida yoki jarrohlikdan keyin ko'zda chandiq hosil bo'lishi natijasida yuzaga kelishi mumkin. Yaqinni yoki uzoqni yaxshi ko'ra olmaslik dardiga chalingan insonlarda ma'lum darajada astigmatizm ham mavjudligi ehtimoldan xoli emas. Uning o'ta og'ir turi birikkan astigmatizm bo'lib, kishi bunda yaqin masofadan ham, uzoqdan ham yaxshi ko'ra olmaydi. Ba'zi hollarda inson astigmatizm xastaligi bilan og'rganini payqamay qolishi ham mumkin. Biroq boshda og'riq paydo bo'lishi, narsalarning chaplashib yoki ikkita bo'lib ko'rinishi, kompyuter yoxud kitobdan ko'zning tez toliqishi kabi belgilar namoyon bo'lsa, darhol mutaxassisga murojaat qilish lozim. Bu holatni shaxsan o'zim boshimdan o'tkazganim uchun yozishni joiz deb toptim. Ko'z shifokori maxsus jadval va silindrsimon linzalar ko'magida ko'rish a'zosini tekshirib, aniq tashxis qo'yib beradi. Astigmatizmni maxsus linza yoki ko'zoynaklar orqali bartaraf etish mumkin. Undan batamom xalos bo'lish esa jarrohlik amaliyotini taqozo etadi. Davo choralari ichida birmuncha samarali va xavfsiz hisoblangani "LASIK" deb atalmish ko'rishni lazer yordamida davolash usulidir. 15 daqiqacha davom etuvchi lazer jarrohligi asnosida avval maxsus asbob yordamida muguz pardaning ustki qatlami kesib olinadi. So'ng unga lazer yordamida ishlov berilib, sferik holga keltiriladi. Shundan keyin muguz parda joyiga qaytarib qo'yiladi va o'zida mavjud kollagen moddasi hisobiga holatini tiklab oladi. Shu sababli bunda chok qo'yish talab qilinmaydi. Natija jarrohlik amaliyotidan keyingi 1-2 soat ichida sezila boshlaydi. Ko'rish qobiliyati 1 hafta davomida to'la tiklanadi[4] Ta'kidlash joizki, astigmatizmni davolamaslik

g‘ilaylik yoki ko‘rishning keskin yomonlashuviga olib kelishi mumkin. So‘zinning yakunida barchangiz sog‘lig‘ingizga e‘tiborli bo‘lishingizni so‘rab qolaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maxsus pedagogika (Darslik). -T.: «Fan va texnologiya», 2014, 368 bet.
2. <https://fayllar.org/mavzu-mutaxassislik-fanlari--korishda-nuqsoni-bolgan-bolalar-h.html?page=2>
3. <https://mymedic.uz/kasalliklar/oftalmologiya/koz-kasalliklari>
4. <https://avitsenna.uz/astigmatizm/?ysclid=ldra9eg61k239487894>